

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.U.Xamidjanov	
Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishda yakkakurash elementlariga ega harakatlari o'yinlardan foydalanish metodlari.....	85
A.A.Parmonov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlili	90
M.A.Tursunboyeva	
Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni tushunchasining lingvodidaktik tavsifi	97
M.I.Boymanova	
Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilar kompetentsiyasini shakllantirish	102
A.Matkarmov	
O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari (xalqaro baholash tadqiqotlari misolida)	105
N.M.Xodjibolayeva	
Al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari	110
M.Sh.Dehqonova	
Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiysi	114
N.Sayimbetova	
Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari	117
A.Abdullayev	
Jismoniy mashqlar inson "Hayotiy quvvati"ni tiklash vositasi	121
J.Sh.Mamayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish zarurati	125
S.Abdullayev	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kognitiv kompetentligini shakllantirishning pedagogik mazmuni	129
D.O.Djalilova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germenevtik kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati	138
М.М.Азизов	
Что такое нордическая ходьба (nordic walking), финская ходьба, северная ходьба с палками, скандинавская ходьба?	141
L.Z.Xolmurodov	
9-10 yoshdagи bolalarning muvozanat saqlash funksiyasini rivojlantirishning yoshga xos me'yorlari	147
I.M.Saidov	
Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ilmiy tavsifi	151
O.A.Xo'jaqulov	
Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompyetyentlikni rivojlantirishning pyedagogik shart-sharoitlari	155

FALSAFA

A.A.Qambarov	
Abdurauf fitrat ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatining falsafiy tahlili	161
B.B.Namozov	
Movarounnahrda temuriylar davrida tasavvuf ijtimoiy ma'naviy hodisa sifatida	166
M.T.Voxidova	
Yoshlarda barqarorlik va bag'rikenglikni namoyon bo'lishining ijtimoiy-axloqiy jihatlari	172
I.M.Arzimatova	
Ayol rahbarlarning axloqiy va estetik madaniyatini integratsiyalash asosida "Rahbar ayol" portretini shakllantirish vazifalari	176

ABDURAUF FITRAT IJTIMOIY-SIYOSIY VA MADANIY FAOLIYATINING FALSAFIY TAHLILI

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АБДУРАУФА ФИТРАТА

A PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SOCIO-POLITICAL AND CULTURAL ACTIVITY OF ABDURAUF FITRAT

Qambarov Abdumutal Axadjonovich¹

¹Farg'ona davlat universiteti falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada jadidchilik harakatining ulkan siymolaridan biri yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos va siyosatshunos olim, davlat va jamoat arbobi, birinchi o'zbek professori Fitratning ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyati falsafiy jihatdan tahlil qilinadi, shuningdek, Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati tarixning eng qaltis damlarida Millat va Vatanga xizmat qilishning yorqin namunasi ekanligi atroflisa yoritib beriladi.

Аннотация

В данной статье рассматривается общественно-политическая и культурная деятельность Фитрата, одного из крупнейших деятелей движения джадидизма, писателя, историка, литературоведа, лингвиста, искусствоведа и политолога, государственного и общественного деятеля, первого узбекского профессора, философски анализируются. Также жизнь и творческая деятельность Фитрата – яркий пример служения Нации и Родине в самые хрупкие моменты истории.

Abstract

This article philosophically examines the socio-political and cultural activities of Fitrat, one of the largest figures in the Jadidism movement, writer, historian, literary critic, linguist, art critic and political scientist, statesman and public figure, the first Uzbek professor. Also, the life and creative work of Fitrat is a vivid example of service to the Nation and Motherland in the most fragile moments of history.

Kalit so'zlar: ijtimoiy va madaniy yangilanish, jadidchilik, ilm-ma'rifat, "Yosh turklar", siyosat, millatchi, jaholatparast ruhoniylar, zulmkor tuzum, ma'rifatparvarlik harakati, ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlar, diniy-ma'rifiy masalalar.

Ключевые слова: социальное и культурное обновление, модернизм, наука и просвещение, «младотурки», политика, националисты, невежественные священники, репрессивный режим, просветительское движение, духовно-просветительские ценности, религиозные и образовательные проблемы.

Key words: social and cultural renewal, modernism, science and education, "Young Turks", politics, nationalists, ignorant priests, repressive regime, educational movement, spiritual and educational values, religious and educational problems.

KIRISH

Jamiyatning ijtimoiy va madaniy yangilanish jarayonida vujudga kelayotgan ma'naviy-ruhiy muhit o'z davrida nohaq qatog'onga uchragan ziyyolilarimiz, jumladan, jadidchilik harakatining ulkan siymolaridan biri yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos va siyosatshunos olim, davlat va jamoat arbobi, birinchi o'zbek professori Fitrat (asl ismi Abdurauf Abdurahim o'g'li, 1986-1938)ning ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatini falsafiy jihatdan ko'rib chiqish va o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalardan biridir.

XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududlarida yangilanish kayfiyati bilan yo'g'rilgan ziyyolilar harakati endigina uyg'ona boshlagan va o'z atrofiga mahalliy ilm-ma'rifatga chanqoq yoshlarni to'playotgan edi. Ana shu harakat tashabbuskorlarining intilishlari bilan 1909-yilning erta bahorida "Shirkati Buxoroi sharif" nomli ma'rifatparvarlik jamiyatni yo'llanmasi bilan Fitrat Istambulga usuli jadidani o'rganish uchun yuboriladi[1,105].

Fitratning hayoti va ijodida katta ahamiyatga molik bo'lgan ana shu davr haqida mualliflar turlicha – ba'zan bir-biriga zid, gohida bir-birini to'ldiruvchi ma'lumotlar berishadi. Sirasini aytganda, bizga Fitratning Istambuldagagi qaysi o'quv maskanida o'qiganligi emas, balki bu o'quv dargohi tufayli uning dunyoqarashida qanday o'zgarishlar yuz berganligi muhimroqdir. Shu ma'noda professor

Begali Qosimovning quyidagi so'zлari e'tiborga loyiq: "Turkiya "Yosh turklar" inqilobidan ta'sirlangan edi. Xususiy turmushdan jamiyat hayotigacha inqilob havosigacha g'arq edi. Bunday muhit Fitratga, shubhasiz, katta ta'sir ko'rsatadi. U siyosatga sho'ng'ib ketadi. Qizg'in badiiy ijod bilan shug'ullanadi. Aslini olganda, Fitrat Turkiyaga ketishdan oldin ham adabiy davralarga tanilgan edi".

Fors va o'zbek tillarining mukammal bilimdoni bo'lgan Fitrat arab tilini ham chuqr egallab, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga, ayniqsa, jadidchilik harakatlariga qiziqib qaradi. O'zining aytishicha, avval jadidlar harakatiga qarshilik qiladi, keyin uning mohiyatini anglab yetgach, bu harakatga qo'shiladi, hatto uning ashaddiy targ'ibotchilaridan biriga aylanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Fitrat ijodini shartli ravishda uch davrga bo'lish mumkin:

1-davr 1909-1916-yillarni o'z ichiga olib, Turkiya taassurotlaridan ilhomlangan holda jadid ma'rifatparvari sifatida ijod qilgan.

2-davr 1917-1923-yillarga oid bo'lib, Sho'ro maxfiy xizmatining doimiy nazoratida bo'lgan davrda Fitrat asosan ilmiy va pedagogik ishlar bilan shug'ullanadi.

Fitrat Turkiyada tahsil olish, ma'ruzalar o'qish bilan birga samarali ijod ham qildi. 1909-yilda Istambulda uning fors tilida yozgan "Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilgan munozarasi" kitobi bosilib chiqadi. 1909-yili Istanbulda "Munozara" ("Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilgan munozarasi") Buxoroda bosilishiga amir ruxsat bermagach, Istanbulda nashr etiladi. Shuningdek, mazkur davrlarda 1911-yilda "Sayha" ("Na'ra") she'riy to'plami, 1912-yilda esa "Sayohi hindi" ("Bayonoti sayyohi hindi") asari bosilib chiqdi[2,358]. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, taniqli olmon olimasi Ingeborg Baldaufning XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar risolasida "Munozara" ("Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilgan munozarasi") asari 1911-yilda bosilgan, deb ko'rsatilgan[3,50].

Mazkur asar Istanbulda chop etilgan bo'lsa-da, Buxoroda ijtimoiy ongning jonlanishiga katta turki bo'ldi, hatto hukumat tomonidan ta'qib qilinayotgan jadid maktablarining ko'plab ochilishiga, maktab-ta'lif ishlarining jonlanishiga yordam berdi. Axir undagi "Islom mamlakatlari nega vayrona va harobazor qolishi kerak. Buning sababi nimada?", "Bu bechoralarning nega yeishiga noni yo'q?" kabi jiddiy savollar va mulohazalar o'z davrida xalq ongiga ta'sir eta boshladi. Bu esa yuqorida ta'kidlaganimizdek, jadid maktablarining ochilishiga va rivojlanishiga turki berdi.

Fitratni millatchi, turkparast va islomparast yozuvchi sifatida qoralashga sababchi bo'lgan bu ikki asar, jumladan, "Munozara", "Sayha" ("Na'ra") XX asr boshlarida Turkistonagi milliy uyg'onish harakatida norasmiy dasturi amal bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, "Munozara", "Sayha" ("Na'ra") asarlari yoshlari dunyoqarashining keskin o'zgarishiga va ularning jadidlar safiga kelib qo'shilishi sabab bo'ladi.

Fitrat mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy ishlarni amalga oshirishda Samarcandda 1917-yil apreldidan "Hurriyat" gazetasi orqali ham o'z g'oyalarini targ'ib eta boshladi. Ushbu gazetaga avval unga Mardonqul Shohmuhammadzoda, keyin 27-28-sonlariga Fitrat muharrirlik qiladi. Oktabr to'ntarishi munosabati bilan shu "Hurriyat" gazetasining 1917-yil 49-sonida Fitratning "Rusiyada yangi balo bosh ko'tardi – bolshevik balosi!" degan qaydi bosiladi.

NATIJALAR

Fitratning dastlabki she'riy to'plami "Sayha", mutaxassislarining ma'lumot berishlaricha, 1909 yilda Istanbulda bosilgan. "Sayha" "Farhang"da "bong, faryodi dahshatangiz, na'ra" deb izohlangan. Undagi she'rlar Vatan haqida ekanligi, Vatan haqida osoyishta so'zlab bo'imasligi, uning dardi nihoyasiz, jarohatlari halokat yoqasiga olib kelishi mumkinligi haqida yozilganligi bilan alohida ajralib turadi. Shoir uning "holi xarob"ligidan, "panjai g'am"dan "pirahani (libosi)" chokligidan dod soladi. Unga mehru-muhabbatini hayqirib aytadi. U bilan iftixor etdi. Uni har narsadan muqaddas tutdi. U uchun baxt va najot qidirdi. Shoirning bu o'tli she'rlari 1914-yilda "Sadoyi Turkiston" gazetasida ham bosiladi. Fayzulla Xo'jayev o'zining Buxoro inqilobi tarixiga bag'ishlangan kitobida bu haqda shunday yozgan edi: "Vatanparvarlik she'rlari to'plami bo'lgan "Sayha"ni o'qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, rus hukumati ham ta'qib qila boshladi. Chunki bu she'rlarda Buxoro mustaqilligi g'oyasi birinchi marta juda yorqin shaklda ifodalab beriladi".

FALSAFA

1913-yilda Fitrat Buxoroga maorif va madaniy-ijtimoiy qurilish haqidagi yangi g'oyalar bilan qaytib keladi. Biroq bularni mutaassiblik avj olgan Buxoroda amalga oshirishga yo'l yo'q edi[2,358]. Shunday bo'lsa-da, Fitrat yurtiga qaytgach, Buxoro va Samarqanddagi qizg'in adabiy jarayon, madaniy, maorif ishlariiga va siyosiy harakatlarga faol aralashib ketdi. Jadidchilarning bir guruhi maorif-ma'rifat orqali xalq ahvolini yaxshilashga intilishsa, ikkinchi guruhi davlat tizimini isloh etish, qayta qurish orqaligina xalq va yurt ahvolini o'nglash mumkin, degan siyosiy yo'ldan yurishga intiladi. Shu maqsadda 1917-yil fevral inqilobidan keyin yosh buxoroliklarning inqilobiy partiyasi tuziladi. Markaziy Qo'mita a'zolari orasida Fitrat sarkotib sifatida va Fayzulla Xo'jayev a'zo sifatida ishtirok etishadi.

Fitrat 1921-yilda Buxoroga kelib davlat ishlarida faol ishtirok etadi. Bir qancha mas'ul vazifalarda ishlab, Buxoroning rivoji uchun qo'llidan kelgan yordamini beradi. Ammo F.Xo'jayev boshchiligidagi Buxoro hukumati rahbarlarining millatning taraqqiyoti uchun olib borayotgan keng ko'lamdagи yaxshi ishlari Maskovga yoqmadи. Maskov Buxoro hukumati tarkibi boy, savdogarlardan iborat bo'lib qolgan, degan aybni qo'yib, 1923-yil 12-iyun kuni Plenumi hukumat a'zoligidan besh kishini, jumladan Fitratni ham chiqaradi. Bundan qattiq tasirlangan Fitrat Maskovga ketishga majbur bo'ladi. U yerda 1923-1924-yillar davomida Sharq tillari institutida ilmiy xodim bo'lib ishlaydi va unga professorlik unvoni beriladi.

Fitrat Maskovdan qaytib kelgach, Buxoro, Samarqand, Toshkent universitetlarida dars bera boshlaydi, shuningdek, O'zbekiston Davlat ilmiy-tadqiqot institutida til va adabiyot institutida, O'zbekiston Fanlar qo'mitasida ishladi. Mazkur yillari Fitrat she'rlar, pyesalar bilan birga nihoyatda ko'p va teran ilmiy asarlar yozadi. Ammo Fitratning millatparvarligi bolsheviklar va Sho'ro hukumati rahbarlariga yoqmaydi. Uni A.Qodiriy, Cho'Ipon, Botu, U.Nosirlar bilan birgaliqda millatchiliqdа ayblab, baxt-saodat, haqiqat,adolat, maorif, fan, madaniyat va millat taqdiri uchun tunu kun mehnat qilgan bu ulug' zotni shu partiya, shu Sho'rolar hukumati aksilinqilobchi, millatchi, "xalq dushmani" sifatida 1937-yil aprelda hibsga oladi va 1938-yil 4-oktabrda A.Qodiriy, Cho'Iponlar bilan birga vahshiyarcha otib tashladi. Ularni otish haqidagi hukm bir kun keyin, ya'ni 1938-yil 5-oktabrda chiqqan. 1957-yilda Sobiq Ittifoq Oliy sudining harbiy kollegiyasi 1938-yil 5-oktabrdagi hukmni bekor qiladi va Fitratni aybsiz deb topadi.

Boshqa o'zbek ma'rifatparvarlari singari Fitrat ham O'rta Osiyo xalqlarini nodonlik va jaholat botqog'iga olib kelgan ijtimoiy sabablarni o'rgandi, jaholatparast ruhoniylar va zulmkor tuzum sababli paydo bo'lgan ijtimmoi mushkul ahvoldan qutilish yo'llarini axtaradi. Uning "Muhtasar islam tarixi" (1915), "Rahbari najot" (1915), "Oila" (1916), va boshqa falsafiy risolalarida insonlarning yalpi qardoshlik g'oyasi talqin etib berildi. Bu asarlarda ko'plab halqlar va millatlar insoniyat deb atalgan yagona oilani tashkil etadilar, turli tillarda so'zlashuvchi va turli-tuman diniy mazhablarga e'tibor qiluvchi barcha xalqlar oxir-oqibat bir oila bo'lib birlashadilar, ular uchun najot yo'li mana shundan iborat bo'ladi, yalpi qardoshlik va baxt-saodat ana shunda boshlanadi, degan fikrlar targ'ib qilinadi. Uning ijodiy ishlari va ijtimoiy faoliyati xalqni jaholat, turg'unlik, g'aflatdan uyg'otish, ilm-ma'rifatga chorlash, erkin, ozod, baxt-saodatli hayotga, birinchi navbatda milliy mustaqillikka chorlashga qaratilgan edi. U o'zbekning o'zligini tanishi, ota-bobolari kabi ulug'ver kashfiyotlar qilishga, birlashgan, kuchli, qudratli davlat tuzishga va dunyoning ilg'or mamlakatlariga yetib olishda ota bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan va qadriyatga aylangan mumtoz musiqa merosimizdan oqilona foydalanish lozimligini aytib o'tadi. Bu esa uning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi, "O'zbek musiqasi to'g'risida", "Shashmaqom" kabi risola va maqolalarida o'z aksini topgan.

MUHOKAMA

Fitrat she'riyatining milliy uyg'onish va inqilobiy ruhdagi haqqoniy, mardona yo'nalishda ekanligidan dalolat beradi. Fitratning 1912-yilda chop etilgan "Sayohi hindi" ("Bayonoti sayyohi hindi") nasriy asarida jahon xalqlari, ilg'or mamlakatlar fuqarosi ko'zi bilan Buxoro, umuman Turkistonning davlat tuzumiga, tartib-qoidasiga, maorifiga nazar tashlab, ulardagи ibratli jihatlarni qo'llab-quvvatlab, illatlarini esa beayov fosh etadi. Asarni Buxoroni, umuman Tukistonni erk yo'liga olib chiqish dasturi deyish mumkin. Fitrat mazkur asarinining "Umaro" bobida hokimlarning to'dasi hech vaqt hech kimning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lмаган ikki toifadan tuzilganligini ko'rsatib beradi. Ularning birinchisi johil hokimzodalar bo'lib, ular otalari hukmronlik davrida fisq-fujur va bema'nilik bilan maishatga berilib, barcha insoniy fazilatlardan, hatto savoddan ham bebahra qolganlar. Boshqa toifasi esa attor va baqqollar bo'lib, har ikkala dunyoning saodatidan imkonи

boricha bahramandlikni istaydilar va ilmu fazl tahsilini insoniy fazilatlardan, - deb biladilarki, hammalari birlashib, turli yo'llar bilan hokimliklikning oliy martabasiga yetgan amaldorlardir. Amaldorlar hukmronlik otiga minib, bechorayu badbaxt xalqning mol, jon, arz, nomus va sharafini shafqatsizlarcha poymol etdilar, - deb ta'kidlaydi. Shuning uchun Fitrat barcha jirkanch qusurlardan foriq bo'lish uchun hammaga ma'lum bo'lgan va har bir millatning taraqqiyoti uchun ilm asosiy sabab ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Fitrat tijorat ishlarini va boy bo'lishni targ'ib etadi, ammo boylikka sajda qilish, iymon-e'tiqodni, insofni yo'qotishni qoralaydi. Boy badavlat kishilarni millatning ravnaqi yo'lida hasis va baxil bo'maslikka chaqiradi. Jumladan, 2015-yilda fors tilida yozilgan "Rahbari najot" risolasida tafsir, hadis, fiqh, kalom ilmlari, shuningdek, lisoniy, falsafiy, dunyoviy ilmlar to'g'risida aniq tasavvur beradi; avlod, badan, fikr, ahloq tarbiyasiga oid falsafiy-ahloqiy qarashlarni ilgari surdi. Risolaning "Baxillik" bobida "Alloh roziligi yo'lida bir-birlaringizning saodatlaringiz uchun mol sarflanglar va o'zingizni o'zingiz tahlikaga solmangki, zero baxilligingiz sizni va qavmingizni halok etadi"[4,125], - deb ta'kidlaydi.

Jadidlarning diqqat markazida ayollar masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. O'z davrining boshqa jadidlari kabi Fitrat ham o'zining 1916-yilda yozilgan "Oila" nomli risolasida "...islomiy tarbiyaning o'chog'i sanalgan oilada ota-onaning sha'riy vazifalari va farzandlik burchlari haqida fir yuritadi"[5,31]. Ayniqsa, oilaning jamiyat va inson hayotidagi rolini oshirishga, oila a'zolarining huquqiy meyorlarini belgilashga qaratilgan fikr va mulohazalarini yanada oydin va aniq qilib izohlab beradi. Jumladan, ularning haq-huquqlari, jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy turmush darajalari, ilm olishlari to'g'risidagi muammolarni ko'rsatib beradi. Shuningdek, Fitrat xotin-qizlarning erkaklar bilan bab-baravar ilmdan bahramand bo'lmasligi jamiyat va xalq taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatib kelganini ta'kidlab o'tadi.

Fitrat vataniga qaytgach, Buxoroning turli tumanlarida o'qituvchilik qilib, jadidchilik g'oyalarini keng targ'ib etdi. Yosh buxorochilar harakatining mafkurachisi va g'oyaviy rahbarlaridan biriga aylandi. Yosh buxorochilar harakatining so'l qanotiga 1915-yildan boshlab boshchilik qila boshlaydi. 1917-yilda Fevral voqealaridan keyin jadidlarning Buxoro amirligidagi ahvoli murakkablashgach, Samarqandga ko'chib borib, "Hurriyat" gazetasida muharrir bo'lib ishladi.

1917-1920-yillarda chop ettirgan "O'qu" ("O'quv"), "Sharq siyosati" va "Yig'la, Islom" singari asrlarida yozuvchi bir tomondan, shu yillarda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy masalalarga munosabatini ifodalagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, muslimmon olami uchun o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan yoki muayyan tarixiy davrda saqlanib qoladigan ma'nnaviy va ma'rifiy qadriyatlarni tushuntirib berdi. Fitrat mazkur asarlarida millatning nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki diniy-ma'rifiy masalalarda ham yetarli darajada bilimga ega bo'lmaganligini e'tiborga olib, har bir muslimmonning bilishi lozim bo'lgan bir qator masalalarga to'xtalib o'tadi. Fitrat 1920-yilda "Chin sevish" va undan uch yil keyin "Hind ixtilochilari" fojiasini yozadi. Bunda ingliz bosqinchilaridan Hindistonni ozod qilishga kirishgan yoshlarning jasorat ko'rsatiladi. Bu g'oya "Chin sevish"da ham bor edi. Fitratning siyosiy-falsafiy asarlaridan biri, bu – "Chin sevish"[6] dramasidir. Fitrat Ovro'poning davlat tuzumi, fan-texnika sohasidagi barcha yutuqlarini o'rganish, o'zlashtirish tarafdoi bo'lgan. Ammo u yerda mehr-shafqatlilikni bir chekkaga surib, butun choralar bilan foyda ketidan quvishni, pul, oltinga sajda qilishni qattiq tanqid qiladi. Asardagi juda ko'p o'rinalar qizil imperiyaga ham qarata aytilgan tig'li so'zlar bo'lganligini ham e'tirof etish mumkin.

Fitrat ijtimoiy ijtimoiy taraqqiyotda millat madaniyatiga ham alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga mumtoz musiqiy merosimizni o'rganishimiz kerakligi va ulardan ta'lim-tarbiya sohasida oqilona foydalanish lozimligini aytib o'tadi. Jumladan, u o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi", "O'zbek musiqasi to'g'risida", "Shashmaqom" kabi risola va maqolalarida ushbu fikrlarni aytib o'tadi. Jumladan, u o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" risolasida o'zbek musiqasining asoslarini belgilash, uni tashkil etgan unsirlarni aniqlash, kecherган davrlarni, butun sabablari bilan, ochiq tayin etish va natijada, obyektiv, ilmiy xulosa chiqarish, o'zimizdan olim musiqashunoslar yetishmaguncha mumkin emasligini uqtirib o'tadi. Shu bilan baravar, bizda olim-musiqashunoslar yo'q deb, milliy musiqa sohasida ilmiy va tarixiy tatabbu'otga kirishmasdan tura olmaymiz, mumkin bo'lgan bu sohada ishslash, to'plangan va ishlangan ma'lumotlarni matbuotga chiqarish lozimligini ta'kidlaydi.

Fitrat jadid sifatida, birinchi navbatda, insonning dunyoga kelib, ilm olish huquqiga ega ekanligi va shu huquqdan foydalanish lozimligini ta'kidlaydi. Insonning bu huquqi Payg'ambar(s.a.v.) xikmatlari va Qur'on suralarida uyg'un bo'lishiga qaramay, jamiyatdagagi fikri

FALSAFA

qotib qolgan kimsalarning qarshiligiga uchrab, oyoqosti qilinishi unda kuchli e'tiroz uyg'otadi. "Ayni vaqtida ilm-fanga o'zining butun ongli hayotini bag'ishlagan ziyolilar uchun ilmiy qadriyatlar – olyi qadriyat, hayotning ma'nosи, o'zlikni namoyon etish vositasi sifatida anglanadi"[7,20]. Islom dini nuqtai nazardan olyi qadriyat – ilohiy kalom, ya'ni Qur'oni Karimdir, shariat hukmlari va payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning sunnatlaridir. "Islom Alloho yagona deb e'tiqod qilib, U Zotga bo'ysunish, butun qalb bilan U Zotga ixlos qilish va Alloh buyurgan diniy e'tiqodga iymon keltirish"[8,27] ham yuksak islomiy qadriyat hisoblanadi. Shu bilan birga "Ilm yoshda sohibiga istiqomat yo'lini ko'rsatadi. Ulg'ayganda esa uni xalqning peshvosiga aylantiradi. Yana ilm botil va fosid amallarni tuzatib, isloh qiladi, dushman va hasadchilarni mag'lub etadi, egri va yanglish ishlarni to'g'rileydi, orzu-maqсадlarni ro'yobga chiqaradi. Shuning uchun ham ilm fazilat hisoblanadi..., uni qadrlamagan shaxs johildir. Johillar ilmning fazilatini o'chaydigan manbaga ega bo'Imaganligidan ilmning fazilatini anglamaydilar va ilm ahlinii faqir sanaydilar"[9,10].

Binobarin, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Fitratning jadid sifatida yangi usuldagi maktablarni himoya qilishi, madrasalarda yillab ijtimoiy hayot uchun muhim bo'Imagan "fan"lar o'rniga hayotiy zarur dunyoviy fanlarni egallashi lozimligi to'risida jon kuydirishi – bu xalq va millatning, o'zbek davlatchiligining ertagi kuni to'g'risida qayg'urishidan dalolat beradi. Umuman jadidlarning fikricha, xalqni ma'rifatli etmay, ulamonni jaholat botqog'idan chiqarmay turib, jamiyat kemasini taraqqiyot manzillari sari boshlash, rus mustamlakachiligining siqilib kelayotgan zanjirlaridan halos bo'lishi amri mahol edi. Shuning uchun ham jadidlarning najod yo'li sifatida yangi usul maktablarni targ'ib etishi va ochishi tarixan to'g'ri bo'lgan.

Fitrat singari jadidchilik harakati rahbarlari dastur ahamiyatiga ega risola va maqolalarini e'lon qilibgina qolmay, bu asarlar zamirida yotgan asosiy g'oya – ma'rifatparvarlik faoliyati bilan amaliy jihatdan ham shug'ullanishdi. Shunday bo'lsa-da, faqat yangi maktablar ochish bilangina jadidchilik harakati oldida turgan maqsadlarga erishib bo'imaslagini anglagan Fitrat mamlakatdagi soliqlarni kamaytirish, dehqonlar ahvolini yaxshilash, amaldorlar o'rtasida avj olgan poraxo'rlikka barham berish va ularning haq-huquqlarini cheklash zarurligini aytib o'tadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, "O'ynoqi she'rlar va chuqur falsafiy hikoyalari va qissalar muallifi bo'lgan Fitrat sharq tillarini o'rganish, sharq musiqa merosini tiklash va tartib qilish sohasida ko'plab benazir ishlarni qildi, madaniyat-ma'rifat, o'quv va ilmiy-tadqiqot institutlarining faoliyatida jonbozlik ko'rsatdi"[10,80].

Ma'rifatparvarlik harakati uchun xos bo'lgan demokratizm bilan burjuachilik o'rtasidagi ikkilanishlar, xato va ziddiyatlar, murosasislik mayllari mavjud bo'lishiga qaramay, Fitrat siyosida demokratik belgilar ustivorlik qiladi. Uning g'oyaviy va falsafiy mazmuniga ko'ra zo'r ijtimoiy ahamiyatga molik ijodi yosh Buxorolik inqilobchilarning asarlaridan ko'p jihatdan ustun bo'lgan.

Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati tarixning eng qaltis damlarida Millat va Vatanga xizmat qilishning yorqin namunasidir. Yirik jadidshunos olim Begali Qosimovning so'zлari bilan aytganda, har qanday holda ham xalq bilan birga bo'lish, uning manfaatini har narsadan ustun qo'yish, har narsadan muqaddas bilish Fitrat shaxsiyatining eng muhim xususiyatlaridan edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Наим Каримов. XX аср адабиёти манзаралари. –Тошкент: Ўзбекистон. 2008. –Б. 105
2. Миллий Уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Тошкент: Маънавият. 2004. –Б. 358
3. Ингеборг Балдауф. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. –Тошкент: Маънавият. 2001. –Б. 50
4. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. –Тошкент: Маънавият. 3-том. 2020. –Б. 125
5. Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат. –Тошкент: Ёзувчи. 1996. –Б. 31
6. Вадуд Махмуд. Мақола. Фитратнинг "Чин севиш" драмасига бағишилаб ёзилган ушбу номдаги мақола "Қизил байроқ" газетасининг 1921 йил 22 сентябр сонида босилган.
7. Камбаров А.А. Илмий ва диний қадriяtlar трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Монография. –Фарғона. 2023. –Б. 20
8. Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Олам ва одам, дин ва илм. –Тошкент: Hilol-Nashr. 2019. –Б. 27.
9. Исҳоқон Мұхаммаджон ўғли. Таълим ва тарбия. –Тошкент: Hilol-Nashr. 2018. –Б. 10.
10. Фуломова М.О. Ўзбек зиёлиларининг камолоти. –Тошкент: Ўзбекистон. 1992. –Б. 80